ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№6(3)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 356 sahifa,*
*9-iyun, 2026-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

O‘zbek bolalar folklorining etnopsixolingvistik jihatlari ........ 10
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna

The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System ........ 15
Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish ........ 21
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li, Mamatqulov Davronbek Abdig‘apparovich

Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta’lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati ........ 25
Ne’matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna

Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari ........ 30
Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati ........ 33
Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog‘at

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari ........ 37
Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiova Sevaraxon Mahammadsharif qizi

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish ........ 41
Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna

Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o‘rni ........ 45
Sh. S. Kurbanova

Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar ........ 49
Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna

Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатриированными из ЗОН вооружённых конфликтов ........ 53
Юлдашев Санжар Рузимуродович

Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari ........ 57
Mamatova Karomat Ilhomjonovna

Bitiruvchi sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ... 61
Asilova Sanobar Xatamboyevna

Optika bo‘limini o‘qitishning didaktik asoslari ........ 66
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish ........ 69
D. Y. Pulatova, G‘. R.Berdiyev

Psixologik savodxonlikning o‘smirlar akademik savodxonligiga ta’siri ........ 76
Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta’limni qo‘llashning pedagogik asoslari ........ 81
Ismonov Turgunpulat To‘lqinovich

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg‘ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi ........ 84
Maripova N. X.

Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi ........ 88
Nurova Malika Abduzairovna

Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development ........ 92
Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna

Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari ........ 97
Raximova Gulxayo Alisherovna

Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati ........ 100
Shaalimov Muxtorsha Atxamovich

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari ........ 105
X. Sh. Ochilova

Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi ........ 109
Xalilova Dilnoza Furkatovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari ........ 112
Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna

Bo'lajak buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi talabalrning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 117
Arziyeva Visola Namozovna

Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari ........ 121
Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili ........ 125
Sharopova Durdona Azim qizi

Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari ........ 129
Tashmatova Gulzoda

Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari ........ 133
To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna

Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni ........ 137
Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna

Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili ........ 142
Vaxobova Muxtabar Nurmuhammat qizi

Kreativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirish ........ 146
Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari ........ 151
Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna

Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish ........ 156
Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish ........ 161
M. S. Achilova

Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi ........ 165
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi,
Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi

PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish ........ 169
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi,
Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari ........ 173
Gafurova Shoxista Erali qizi

O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari ........ 178
Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi

O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili ........ 181
Tursunova Dilbar Zafarovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech ... 184
Turumbetova Aygul Yusupbaevna

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o‘rgatish metodikasi ... 189
Ummatkulova Sayyora Shovkatovna

Boshlang‘ich sinflarda matematika ta’limini tashkil etish ... 191
Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov

Metakognitiv xabardorlik ko‘rsatgichlarining ta’lim shakliga bog‘liqligi ... 195
Ermatova Robiya Bekjonali qizi

The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education ... 199
Ismailova Shaira Ferdausovna

Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners ... 204
Maqsudova Gulnoz Olimovna

Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms ... 208
Norboyeva Shahnoza Jo‘rabek qizi

Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching ... 212
Sharipova Muhabbat Erkinovna

Raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellektga asoslangan elektron o‘quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili ... 216
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich

Boshlang‘ich ta’limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv ... 222
Yo‘ldoshev Farhodjon Baxtiyor o‘g‘li

O‘qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning psixologik tahlili ... 227
Yuldashova Dilafruz Shavkatovna

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida ... 229
Safarova Madina Azamat qizi

Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности ... 233
Аскарова Гулрух Оринбасаровна

Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века ... 239
Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Ғолиб

Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана ... 242
Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек

Umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining asosiy shakllari ... 245
Abdukarimov Nurmaxan Amirxanovich

Orol bobo obrazi orqali inson va tabiat birligining talqini ... 249
Hayotova Diyora Hamid qizi

Yosh taekvondochilarda (10–12 yoshli) kuch, tezkorlik va epchillik sifatlarini takomillashtirish metodikasi ... 254
Iminova Z. B., Nazarova M. A.

Oliy ta’lim muassasasi kafedra mudirlarida liderlik xususiyatini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar ... 258
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna

Mediafalsafaning oliy ta’lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari va pedagogik funksiyalari ... 265
Mirabdullayev Izzatillo Isroiljon o‘g‘li

Maktabgacha ta’lim tashkiloti kun tartibini to‘g‘ri tashkil etishda tarbiyachining roli ... 271
Muminova Gulasal Baxodirovna

Soft Skills yondashuvi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish ... 275
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi

Tasviriy faoliyat jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish ... 280
Sadirova Kamola Giyozovna

Inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus pedagogik metodlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash ..... 284
Suyunova Kamola Jamshed qizi, Suvonova Kamola Rayimkulovna

Web-dizayn texnologiyalari asosida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining raqamli kompetentligini shakllantirish metodikasi ..... 287
Ulmasbek Abdubanapovich Yuldashev, Prof. Dr. Ayhan İstanbullu

O'smirlar axloqiy rivojlanishining psixologik determinantlari va ularni takomillashtirish mexanizmlari ..... 293
Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li

Oliy ta'limda o'zbek tili fanini o'qitish: muammo va yechimlar ..... 297
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Folklor motivlarining bolalar xarakteri shakllanishidagi o'rni ..... 300
Safarova Nigora Oxunjonovna, Sayfilloyeva Jasmina Jahongirovna

Kreativ pedagogga qo'yiladigan talablar va uni shakllantirish bosqichlari ..... 304
Abdialimova Maxfuza Safarboy qizi

Biologiya darslarida STEM va biotexnologiya integratsiyasining nazariy poydevori ..... 307
Abdusamatov Abduqodir Norqul o'g'li

The Effectiveness of Project-Based Learning in Developing 21st-Century Skills Among EFL Learners ..... 314
Axmatova Munisa Orif qizi

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning o'yin faoliyati asosida ijtimoiylashuvi ..... 320
P. M. Pulatova, El'muradova Madina Yangiboy qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini xalq og'zaki ijodi asosidagi didaktik o'yinlar orqali rivojlantirishning lingvopsixologik va tarbiyaviy mexanizmlari ..... 326
Muqimova Gullola Qobil qizi, Sultonov Humoyun Ulug'murodovich

Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning metodologik asoslari ..... 330
Nurkeldi Jarasbayev

Sun'iy intellekt texnologiyalarining informatika ta'limidagi o'rni va ahamiyati ..... 334
Abdullayev Abubakir Narzullayevich, Xurozboyeva Sevinch Abror qizi

Научно-методологические основы организации психопрофилактической и психокоррекционной работы в практической психологии ..... 337
Ядгарова Озода Ибрагимовна

Raqamli ta'lim muhitida birlamchi manbalar bilan ishlashning sun'iy intellektga asoslangan pedagogik-metodik mexanizmlari ..... 342
Yursinboyev Jaxongir Mexrojidin o'g'li

Zamonaviy biologiyada umumiy genetikaning o'rni va istiqbollari ..... 348
Ko'bayev Jurabek Eshmamatovich

Разработка системы мониторинга информационной безопасности для высших учебных заведений ..... 352
Хамроев Шохбоз Султонмуродович

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI XALQ OG'ZAKI IJODI ASOSIDAGI DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING LINGVOPSIXOLOGIK VA TARBIYAVIY MEXANIZMLARI

Muqimova Gullola Qobil qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti

Sultonov Humoyun Ulug'murodovich
Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalariga asoslangan didaktik o'yinlarning o'rni va lingvopsixologik tabiati tadqiq etilgan. An'anaviy ta'limdagi qat'iy qoliplardan farqli o'laroq, o'yin faoliyati bolada g'ayriixtiyoriy o'zlashtirish fenomenini yuzaga keltirishi, ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtirishi hamda bolaning axloqiy va ma'naviy qiyofasini milliy kodlar asosida shakllantirishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, fonetik-orfoepik, leksik-semantik hamda kommunikativ-diskursiv ko'nikmalarni rivojlantiruvchi maxsus o'yin modullari tasniflanib, ularning amaliy ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** nutqiy kompetensiya, didaktik o'yinlar, xalq og'zaki ijodi, g'ayriixtiyoriy o'zlashtirish, lingvopsixologiya, kognitiv rivojlanish, kommunikativ ko'nikma, milliy kod, artikulyatsion apparat.

**Abstract:** This article explores the role and linguo-psychological nature of didactic games based on folklore samples in the development of speech competencies among primary school students. It is scientifically substantiated that, unlike the rigid framework of traditional education, play-based activities stimulate the phenomenon of involuntary acquisition in children, accelerate the process of socialization, and contribute to the development of a child's moral and spiritual character based on national values and cultural codes. In addition, special game modules designed to develop phonetic-orthoepic, lexical-semantic, and communicative-discursive skills are classified, and their practical significance is highlighted.

**Key words:** speech competence, didactic games, folklore, involuntary acquisition, linguo-psychology, cognitive development, communicative skills, national code, articulatory apparatus.

**Аннотация:** В данной статье исследуются роль и лингвопсихологическая природа дидактических игр, основанных на образцах устного народного творчества, в формировании речевых компетенций, учащихся младшего школьного возраста. Научно обосновано, что, в отличие от строгих рамок традиционного обучения, игровая деятельность вызывает у ребёнка феномен непроизвольного усвоения, ускоряет процесс социализации и способствует формированию его нравственно-морального облика на основе национальных кодов. Также классифицированы специальные игровые модули, развивающие фонетико-орфоэпические, лексико-семантические и коммуникативно-дискурсивные навыки, а также раскрыто их практическое значение.

**Ключевые слова:** речевая компетенция, дидактические игры, устное народное творчество, непроизвольное усвоение, лингвопсихология, когнитивное развитие, коммуникативные навыки, национальный код, артикуляционный аппарат.

## KIRISH

Zamonaviy boshlang'ich ta'limning konseptual asoslari shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish faqatgina til qoidalarini yodlatish bilan chegaralanib qolmay, balki til vositalaridan real muloqot vaziyatlarida erkin va ijodiy foydalana

olish koʻnikmasini shakllantirishni ham taqozo etadi. Ta'lim amaliyotida koʻp kuzatiladigan holatlardan biri shuki, an'anaviy darslarning me'yorlashtirilgan muhiti qanchalik mukammal tashkil etilmasin, u bolaning toʻlaqonli emotsional ochilishini ta'minlash uchun yetarli boʻlmasligi mumkin. Bu oʻrinda ta'limning interfaol va oʻyinli texnologiyalari, xususan, xalq ogʻzaki ijodiga tayangan didaktik oʻyinlar uzluksiz ta'limning uzviy qismi sifatida maydonga chiqadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin, J. Piaget kabi yirik psixolog va pedagoglarning yosh davrlari psixologiyasiga oid fundamental tadqiqotlariga tayangan holda aytish mumkinki, 7-10 yoshli bolaning yetakchi faoliyati oʻqishga qarab yoʻnalsa-da, oʻyinga boʻlgan genetik va psixofiziologik ehtiyoj saqlanib qoladi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar dunyoni empirik tarzda, faol harakat va oʻyin vositasida tezroq qabul qiladilar. Shunday ekan, xalq ogʻzaki ijodi elementlarini quruq matn tahlili doirasidan chiqarib, didaktik oʻyinlar qolipiga solish pedagogik mexanizmlarning eng samarali transformatsiyalaridan biri hisoblanadi. Zero, folklorning oʻzi tabiatan oʻyin, aytishuv, sanama, askiya kabi qiziqarli shakllarda yuzaga kelgan va ming yillar davomida avloddan avlodga aynan shu emotsional fonda oʻtib kelgan.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda lisoniy koʻnikmalarni shakllantirish asosan ixtiyoriy diqqatga tayanadi. Biroq didaktik oʻyinlar ushbu majburiylik hissini kamaytirib, ta'lim jarayonini oʻziga xos "emotsional qobiq" bilan oʻraydi. Lingvodidaktikada kuzatiladigan "gʻayriixtiyoriy oʻzlashtirish" (involuntary acquisition) fenomeni aynan mana shu muhitda faollashadi. Oʻquvchi jarayon davomida oʻzining til oʻrganayotganini emas, balki qiziqarli musobaqa yoki ijodiy jarayonda ishtirok etayotganini chuqur his qiladi. Asab tizimidagi zoʻriqishlarning pasayishi natijasida miyaning nutq markazlari yuqori samaradorlik bilan ishlay boshlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifat va miqdor tahlillari, psixolingvistik yondashuv hamda pedagogik modellashtirish tamoyillariga asoslanadi. Nutqiy kompetensiyani tarkibiy qismlarga (fonetik, leksik, grammatik, pragmatik) ajratib oʻrganish oʻrniga, ularni yaxlit oʻyin tizimi – kognitiv-pedagogik mexanizm orqali singdirish maqsad qilib olingan. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining lisoniy-nutqiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan, bevosita xalq ogʻzaki ijodi materiallari asosida qurilgan didaktik oʻyinlar majmuasini ma'lum modullarga ajratib oʻrganish maqsadga muvofiqdir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bolaning nutqi atrofdagilar tomonidan toʻgʻri anglanishi uchun uning tovush madaniyati va talaffuz aniqligi shakllangan boʻlishi zarur. Boshlangʻich ta'limning ilk bosqichlaridanoq bolalarning tovushlarni aniq va toʻgʻri artikulyatsiya qilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu modulda milliy sanamalar, chigal soʻzlar va tez aytishlar muhim oʻquv vositasi vazifasini bajaradi.

"Kim tez va xatosiz?" (Artikulyatsion trenajyor) oʻyini. Amaliyotda koʻpincha bolalarning ayrim undoshlarni (q, gʻ, x, h, ng) talaffuz qilishda qiyinchilikka uchrashi yoki tovushlarni tushirib qoldirishi kuzatiladi. Sinfda guruhlar oʻrtasida musobaqa tashkil etilib, aynan shu murakkab tovushlar jamlangan xalq tez aytishlarini bir nafasda, ma'lum tempda ravon aytish sharti qoʻyiladi. Bosh miyadagi eshitish va soʻzlash markazlari tezkor ravishda sinxron ishlay boshlaydi. Ushbu mexanizm bolalardagi fonematik eshitish qobiliyatini rivojlantiradi, logopedik nuqsonlar (dislaliya, duduqlanishning yengil koʻrinishlari)ning oldini oladi hamda artikulyatsion apparatni murakkab nutq oqimlariga tayyorlaydi.

"Ovozlar jilosi" (Intonatsion ssenariy). Bolalar nutqining bir maromdaligi tushunmovchiliklarga va matnning emotsional boʻyoqdorligi yoʻqolishiga olib keladi. Bu oʻyinda bitta qisqa matal yoki maqol tanlanadi va oʻquvchilardan uni turli psixologik holatlarda – quvonch, hayrat, qoʻrquv, qaygʻu yoki qat'iy buyruq ohangida aytib berish soʻraladi. Oʻquvchi tovushning kuchi, baland-pastligi va tembri oddiy soʻzning semantik-pragmatik mazmunini qanday oʻzgartirishini amaliy jihatdan his qiladi. Oʻquvchilar xotirasida mavjud boʻlgan passiv lugʻat zaxirasini faol muloqot maydoniga olib chiqish didaktikaning eng murakkab vazifalaridan biridir. Bunga erishish uchun asosan xalq topishmoqlari, metaforalarga boy maqollar va ertaklardagi turgʻun oʻxshatishlar asosida mantiqiy oʻyinlar tashkil etiladi.

"Mantiqiy auksion" intellektual maydoni. Oʻqituvchi barchaga tanish boʻlgan ertak qahramonini (masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagidagi yovuz oʻgay ona yoki "Susambil"dagi xarakterli personajlarni) e'lon qiladi. Qoida boʻyicha, har bir oʻquvchi ushbu qahramonning fe'l-atvori va koʻrinishini ifodalovchi bitta sifat aytishi kerak. Soʻnggi sifatni topib, davom ettira olgan oʻquvchi "auksion" gʻolibi deb topiladi. Raqobat va gʻalaba ishtiyoqi bolaning kognitiv xotirasida chuqur saqlangan leksik birliklarni yuzaga chiqaradi. Natijada ular sinonimiya va antonimiya kabi til hodisalaridan ogʻzaki nutqda samarali foydalanishga oʻrganadilar. "Adashgan soʻzlar"

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

(Maqol konstruktori). Tahliliy-sintaktik jarayonlarni faollashtiruvchi ushbu mashg'ulotda maqol yoki matallarning tarkibidagi so'zlar ataylab almashtiriladi yoki asosiy ma'no tashuvchi tayanch so'z yashiriladi. Bolalar maqolning asl sintaktik tuzilishini va mantiqiy yaxlitligini tiklashga harakat qiladilar. Bu esa o'quvchidan nafaqat yodlashni, balki so'zlar o'rtasidagi semantik va grammatik aloqalarni tahlil qilishni ham talab etadi. Nutqiy kompetensiyaning eng yuqori bosqichi – mustaqil, o'zaro bog'langan va qat'iy mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'lgan izchil monolog hamda dialog yaratishdir.

"Zanjirli hikoyanavislik" (Diskursni davom ettir). Xalq afsonalari yoki ertaklarining tugun qismi o'qituvchi tomonidan aytiladi va voqealar rivojini davom ettirish o'quvchilarga topshiriladi. Har bir ishtirokchi oldingi o'quvchining fikriga mantiqan mos keladigan navbatdagi gapni qo'shishi zarur. Bu jarayonda boladan yuqori darajadagi kognitiv moslashuvchanlik talab etiladi. U sherigining fikrini tez tahlil qilib, qisqa vaqt ichida yangi sintaktik konstruksiya yaratishi kerak bo'ladi.

"Men kimman?" (Identifikatsion va rolli tavsiflash). Sinfdagi o'quvchilardan birining peshonasiga mashhur folklor qahramonlaridan birining nomi yozilgan stiker yopishtiriladi. U o'zidagi yozuvni ko'rmaydi. Qolgan o'quvchilar esa qahramonning nomini aytmagan holda uning xatti-harakatlari, tashqi ko'rinishi va sarguzashtlarini tavsiflaydilar. Bu o'quvchilarda deskriptiv nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda asosiy lisoniy belgilarni ajratib ko'rsatish malakasini shakllantiradi. Didaktik o'yinlarning eng muhim xususiyati shundaki, ular nafaqat lisoniy qoidalarni o'rgatuvchi vosita, balki shaxsni ijtimoiy muhitga moslashtirish va uning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm hamdir.

Har qanday o'yin ijtimoiylashuv jarayonidir. O'yin boladan shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtirishni, umumiy maqsad sari hamkorlikda harakat qilishni talab etadi. Topishmoq yoki maqol yig'ish musobaqalarida o'quvchilar bir-birini qo'llab-quvvatlashni, muvaffaqiyatdan birgalikda quvonishni va raqibni hurmat qilishni o'rganadilar. Shu tariqa lisoniy muloqot orqali empatiya, insonparvarlik va jamoaviylik hissi rivojlanadi. Bundan tashqari, psixologiyada o'yin shaxsda o'z-o'zini irodaviy boshqarish ko'nikmalarini tarbiyalovchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Didaktik o'yinlarda qat'iy qoidalar (sherigining so'zini bo'lmaslik, vaqt me'yoriga rioya qilish, o'z navbatini kutish) mavjud bo'lib, ularga amal qilish talab etiladi. O'quvchilar folklor qahramonlarining xatti-harakatlarini tahlil qilish jarayonida nutq madaniyati va ijtimoiy muloqot me'yorlarini tabiiy ravishda o'zlashtiradilar.

Milliy o'zlikni anglash masalasi ham ushbu mexanizmning ajralmas qismidir. Globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq qo'shiqlari, boychechak aytishuvlari, loflar va boshqa folklor namunalari asosidagi o'yinlar bolalarda milliy g'urur va milliy o'zlik hissini shakllantiradi. Natijada mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, halollik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar ularning ongiga singib boradi. Nihoyat, didaktik o'yinlarning eng muhim psixologik jihatlaridan biri – o'quvchiga "xato qilish huquqi"ni berishidir. An'anaviy darslarda xato qilish qo'rquvi mavjud bo'lsa, o'yin jarayonida xatolar tabiiy hol sifatida qabul qilinadi. Ushbu psixologik qulaylik muhiti tortinchoq yoki kamgap bolalarning faollashishiga yordam beradi. O'z fikrini erkin ifodalashga muvaffaq bo'lgan bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, liderlik sifatlari shakllanadi va nutqiy faolligi sezilarli darajada rivojlanadi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar ta'limi tizimida xalq og'zaki ijodi asarlarini shunchaki o'qish materialidan didaktik o'yinlar tizimiga (interfaol formaga) aylantirish nutqiy kompetensiyani shakllantirishning eng progressiv, mahsuldor va bola psixologiyasiga maksimal darajada moslashtirilgan texnologiyasidir. Yuqorida tahlil qilinganidek, ushbu yondashuv o'ziga xos universal xarakterga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida ham bolaning til va nutqiy qobiliyatlarini o'tkirlashtiruvchi bebaho lingvistik trenajyor, ham uning xarakterini shakllantiruvchi beqiyos axloqiy tarbiya maktabi vazifasini o'taydi. Pedagogika amaliyotida turli shakldagi (fonetik, leksik, kommunikativ) modulli o'yinlarning muntazam qo'llanilishi an'anaviy ta'limdagi stereotiplarni buzib, o'quvchini darsning passiv tinglovchisidan axborotni dadil tahlil qiluvchi, o'z fikr-mulohazalarini to'siqlarsiz, ravon, mantiqli va ta'sirchan ifoda eta oladigan faol kognitiv subyektga aylantiradi. Aynan mana shu kompleks-integrativ metodologiya amaldagi Milliy o'quv dasturlari va Davlat ta'lim standartlarida belgilab berilgan tayanch hamda fanga oid kompetensiyaviy maqsadlarning to'laqonli va yuqori sifatda amalga oshishini kafolatlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-637). – Toshkent: O'zbekiston, 2020. https://lex.uz/docs/-5013007
2. Vygotsky L.S. Tafakkur va nutq (Psixologik tadqiqotlar) / Tarjimon: Sh.A. Do'stmuhammedova. – Moskva: Labirint, 1999. – 352 b.
3. Elkonin D.B. Psixologiya igry. – Moskva: Pedagogika, 1978. – 304 s.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 340 b.

5. Qosimova Q., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
6. Leontiev A.A. Yazyk, rech, rechevaya deyatelnost. – Moskva: Prosveshchenie, 1969. – 214 s.
7. Piaget J. The Language and Thought of the Child. – London: Routledge, 2001. – 320 p.
8. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2010. – 360 b.
9. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 304 b.
10. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – 180 b.
11. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – 115 b.
12. Shodiyeva Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish texnologiyalari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. – 144 b.
13. Zinkevich-Evstigneeva T.D. Praktikum po skazkoterapii. – Sankt-Peterburg: Rech, 2017. – 320 s.
14. Urakova O. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanib ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. Monografiya. – Buxoro: Durdona, 2021. – 120 b.
15. Xusanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2011. – 352 b.
16. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 132 b.
17. Muxiddinova H. Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2011.
18. To'xliyev B. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 230 b.
19. Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Pergamon Press, 1982. – 202 p.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Mas’ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №6(3)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.